

YANGI JAHON TARTIBOTIDA

ijtimoiy ong, siyosiy
identitet va sivilizatsion
o'zlik dialektikasi

Diyorbek Nurmuradov,
mustaqil tadqiqotchi



ANNOTATSIYA

Ushbu maqola yangi jahon tartibotining shakllanishi jarayonida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o'zlikning o'zaro dialektik munosabatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot Hegelning dialektika falsafasi, Gramshining gegemoniya nazariyasi, Kastelsning tarmoq jamiyati konsepsiyasi va Burdyening ijtimoiy maydon nazariyasi metodologik asosida qurilgan. Maqolada isbotlanadiki, zamonaviy global transformatsiyalar sharoitida ijtimoiy ong an'anaviy mafkuraviy determinantlar doirasida emas, balki sivilizatsion ong, milliy identitet va global axborot oqimlari kesishmasida yangicha tarzda shakllanmoqda. Siyosiy identitet — bu bir o'lchamli, o'zgarmas qurilma emas, aksincha, ijtimoiy amaliyot, madaniy xotira va hokimiyat diskurslari o'rtasidagi doimiy dialektik harakat mahsulidir. Sivilizatsion o'zlik esa — bu hodisa ham qadimiy tarixiy sedimentsiyalarning mahsuli, ham zamonaviy normativ kurashlar ob'ektidir. O'zbekiston misolida post-sovet makoni uchun xos bo'lgan identitet qayta tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Xantington bashorat qilgan "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" sxemasi o'rnida ko'proq "sivilizatsiyalar muloqoti va raqobati" yuz bermoqda va ushbu jarayon qat'iy tomonlashtirilgan ziddiyatdan farqli o'laroq murakkab dialektik xarakter kasb etmoqda.

Kalit so'zlar:

ijtimoiy ong, siyosiy identitet, sivilizatsion o'zlik, dialektika, yangi jahon tartibi, global transformatsiya, postsovet identiteti, O'zbekiston, gegemoniya, normativ kurash, multipolliyar dunyo.

ABSTRACT

This article analyzes the dialectical interrelation of social consciousness, political identity, and civilizational selfhood in the context of the emerging new world order. The research is grounded in the methodological frameworks of Hegel's dialectical philosophy, Gramsci's theory of hegemony, Castells' network society concept, and Bourdieu's theory of social fields. The article demonstrates that under contemporary global transformations, social consciousness is not shaped within the bounds of traditional ideological determinants alone, but rather emerges at the intersection of civilizational consciousness, national identity, and global information flows. Political identity is not a one-dimensional, immutable construct, but rather the product of a continuous dialectical movement among social practice, cultural memory, and dis-

courses of power. Civilizational selfhood, in turn, is simultaneously the product of ancient historical sedimentation and an object of contemporary normative struggle. Using Uzbekistan as a case study, the article identifies the distinctive features of identity reconstruction characteristic of the post-Soviet space. The research findings confirm that instead of Huntington's predicted "clash of civilizations," what is actually occurring is more a "dialogue and competition of civilizations" — a process that, unlike rigid antagonistic conflict, takes on a complex dialectical character.

Key words:

social consciousness, political identity, civilizational selfhood, dialectics, new world order, global transformation, post-Soviet identity, Uzbekistan, hegemony, normative struggle, multipolar world.

1. KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida global tartibning tub qayta shakllanishi kuzatilmoqda. Bir qutbli moment o'z nihoyasiga yetmoqda; AQSh gegemoniasining inqirozi, Xitoyning global kuchga aylanishi, Rossiyaning revizionistik siyosati, Global Janubning ko'tarilishi va raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalarini qayta tuzishi — bularning barchasi birgalikda yangi jahon tartibining parametrlarini belgilayapti. Ammo bu o'zgarish nafaqat harbiy-siyosiy va iqtisodiy kuchlar muvozanatini, balki insoniyatning kollektiv ongini, milliy identitetlarini va sivilizatsion o'zlikni ham chuqur o'zgartirib yubormoqda.

Ijtimoiy ong — bu jamiyatning o'z tarixi, hozirgi holati va kelajagi haqidagi bilimlar, tasavvurlar, his-tuyg'ular va qadriyatlar majmuasini o'z ichiga oluvchi murakkab tuzilmadir. Karl Marks uni ijtimoiy borliqning aksi sifatida ko'rgan bo'lsa, keyingi falsafiy an'ana — ayniqsa, fenomenologiya va germeneytika — uning nisbiy avtonomiasini va o'zini shakllantiruvchi rolini ta'kidlaydi. Bugungi global o'zgarishlar davrida ijtimoiy ong yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda: bir tomondan, u global axborot oqimlari, media va madaniy imperializm tomonidan shakllantirilib, standartlashtirilmoqda; boshqa tomondan, milliy va sivilizatsion o'zliklarning qayta uyg'onishi uning mahalliy, xususiy tomonlarini kuchaytirmoqda.

Siyosiy identitet, o'z navbatida, ijtimoiy ong bilan ham, sivilizatsion o'zlik bilan ham murakkab aloqada turadi. U sub'ektning o'zini siyosiy jihatdan kim sifatida anglashi — qaysi millat, qaysi davlat, qaysi qadriyatlar tizimi va qaysi sivilizatsion an'ananing vakili sifatida ko'rishi — bilan bog'liq. Benedict Andersonning "xayoliy jamoalar" konsepsiyasidan Samuel Hantingtonning sivilizatsion to'qnashuv nazariyasigacha bo'lgan keng oraliqda siyosiy identitet uchun turli nazariy ramkalar

ishlab chiqilgan. Biroq ushbu ramkalarining ko'pchiligi identitetni haddan tashqari statik yoki essentsialistik tarzda tushuntiradi.

Maqolaning asosiy tezisi shundaki: ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o'zlik o'rtasidagi munosabat dialektik xarakter kasb etadi — ya'ni ular bir-birini bir tomonlama belgilab bermaydi, balki doimiy o'zaro ta'sir, qarama-qarshilik va sintez jarayonida shakllanib boradi. Bu dialektik harakat yangi jahon tartibining shakllanishi jarayonida yanada murakkab va ko'p qatlamli tus olmoqda. Ushbu hodisani tushunish bugungi xalqaro siyosatning harakatlantiruvchi kuchlarini anglash uchun muhim metodologik kalit hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — yangi jahon tartibotida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsion o'zlikning dialektik munosabatlarini falsafiy-sotsiologik va siyosatshunoslik metodlari bilan kompleks tahlil qilish hamda ushbu munosabatlarning O'zbekiston misolida namoyon bo'lish mexanizmlarini ochib berish.

2. ADABIYOTLAR SHARHI: NAZARIY POYDEVOR

2.1. Dialektika metodologiyasi: Hegel, Marks va undan keyingi yo'nalish

Dialektika metodologiyasining zamonaviy ijtimoiy tahlil uchun relevantligi G. V. F. Hegelning “Mantiq fani” va “Ruh fenomenologiyasi” asarlarida shakllantirilgan asosiy g'oyalarga borib taqaladi. Hegel dialektikani tafakkur va voqelikning harakatlanish qonuni sifatida tushuntirib, tezis, antitezis va sintez triadologiyasini real va ideal dialektikasida ko'rsatib berdi. Uning uchun “dunyo ruhi” — o'z-o'zini anglashga intiluvchi mutlaq ideal — tarixning harakatlantiruvchi kuchi edi¹. Ushbu g'oya keyingi ijtimoiy falsafada hal qiluvchi rol o'ynadi.

Karl Marks Hegel dialektikasini “oyoqlari ustiga tikladi” — u idealdan materialga yo'nalishni o'zgartirib, dialektikani ijtimoiy voqelikni tushuntirishning metodologik asosiga aylantirdi. Marks va Engelsning “Nemis mafkurasi” va “Kapital” asarlarida ijtimoiy ongning bir-lamchi emas, ikkilamchi — ijtimoiy borliq, ishlab chiqarish munosabatlari va sinf pozitsiyasining aksi — ekanligi asoslab berildi². Ammo Marks o'zi ham ijtimoiy ongning faol, harakatlantiruvchi rolini inkor etmadi — “Feyerbax haqida tezislar”da “dunyoni o'zgartirish” g'oyasini ilgari surdi.

Antonio Gramshi markssizm doirasida ijtimoiy ong va gegemoniya nazariyasini tubdan yangiladi. Uning “Qa-

moqxona daftarlari”da shakllangan gegemoniya konsepsiyasi — hukmron sinf o'z hokimiyatini faqat zo'ravonlik orqali emas, balki madaniy, mafkuraviy va intellektual rahbarlik orqali mustahkamlashi — ijtimoiy ongning siyosiy roli haqida yangi tushuncha berdi³. Gramshi uchun intellektuallar, maktab, din va ommaviy axborot vositalari ijtimoiy ong shakllanishining asosiy institutlari hisoblanadi.

“Eski o'lmoqda, yangi esa tug'ilib ulgurmayapti; ana shu oraliqda monstrlarga to'la sara vaqt namoyon bo'ladi.”

— Antonio Gramshi, *Qamoqxona daftarlari*

Keyingi dialektik an'ana — Frankfurtning tanqidiy nazariyasi (Horkxaymer, Adorno, Habermas), Lui Al-tusserning strukturalistik markssizmi va Ernesto Laklau hamda Shantal Muffning post-markssistik geymoniya nazariyasi — dialektika metodologiyasini yangi ijtimoiy-siyosiy kontekstlarga moslashtirib rivojlantirdi. Xususan, Habermasning “kommunikativ aql” va “hayot olami” konsepsiyalari ijtimoiy ong shakllanishida kommunikatsion amaliyotning rolini ko'rsatib berdi⁴.

2.2. Siyosiy identitet nazariyalari: klassikadan postklassikagacha

Siyosiy identitet nazariyasida bir necha muhim yo'nalish mavjud. Klassik millat-davlat nazariyasi — Ernest Gellner, Eric Hobsbawm va Anthony Smit asarlarida — siyosiy identitetning zamonaviy shakli sifatida milliy identitetni markazga qo'ydi. Gellner millatchilikni sanoat jamiyatining zaruriy yon mahsuli sifatida ko'rdi⁵, Hobsbawm esa “ixtiro qilingan an'analar” va milliy identitetning sun'iy konstruktsiya ekanligini ta'kidladi⁶. Smit esa millatlarning etnik ildizlarini (“ethnic”) milliy identitetning barqarorligi uchun zaruriy asos deb hisobladi⁷.

Benedict Andersonning “Xayoliy jamoalar” (1983) — zamonaviy millatchilik tadqiqotlarining muqaddas kitobiga aylandi. Anderson millat — bu birgalikda xayol qilingan siyosiy jamoadir, deb ta'rifladi va bosma kapitalizm, gazeta hamda roman orqali milliy ongning shakllanish mexanizmini ko'rsatib berdi. Ushbu yondashuv siyosiy identitetning ijtimoiy konstruktsiya ekanligini, ammo ushbu konstruktsiyaning kuchli hissiy va mobili-zatsiyaviy kuchga ega ekanligini isbotladi.

Poststrukturalistik yondashuv — Mishel Fuko, Jak Derrida va Stüart Xoll ishlarida — siyosiy identitetni diskursiv konstruktsiya va differensiya orqali tushuntirdi. Fuko uchun identitet — bu hokimiyat-bilim kompleksining mahsuli (Foucault, 1972); Xoll esa identitetni “sutur” (sutured) — hech qachon to'liq tugallanmagan, doimiy

1 Hegel, G. W. F. (1807/1977). *Phenomenology of Spirit*. Trans. A. V. Miller. Oxford: Oxford University Press. — 592 p.

2 Marx, K., & Engels, F. (1846/1970). *The German Ideology*. New York: International Publishers. — 257 p.

3 Gramsci, A. (1971). *Selections from the Prison Notebooks*. New York: International Publishers. — 483 p.

4 Habermas, J. (1984). *The Theory of Communicative Action*. Vol. 1. Boston: Beacon Press. — 465 p.

5 Gellner, E. (1983). *Nations and Nationalism*. Oxford: Blackwell. — 150 p.

6 Hobsbawm, E., & Ranger, T. (Eds.). (1983). *The Invention of Tradition*. Cambridge: Cambridge University Press. — 322 p.

7 Smith, A. D. (1986). *The Ethnic Origins of Nations*. Oxford: Blackwell. — 312 p.

diskursiv munosabatda shakllanadigan jarayon — sifatida tushuntirdi (Hall, 1996). Bu yondashuv siyosiy identitetning ham strukturaviy, ham sub'ektiv, ham diskursiv tomonlarini bir vaqtda ko'rib chiqish imkonini berdi.

Manuel Kastellsning “Identitet kuchi” (1997) asari axborot jamiyati kontekstida identitet shakllanishini uch turga — legitimatsion identitet (mavjud institutlar tomonidan o'rnatilgan), qarshilik identiteti (marginallashtirilgan guruhlar tomonidan qurilgan) va loyiha identiteti (ijtimoiy o'zgarishga qaratilgan yangi identitet) — ajratib tahlil qildi. Ushbu tasnif raqamli texnologiyalar davrida identitet siyosatining murakkablashishini tushuntirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

2.3. Sivilizatsion o'zlik: Hantington, uning tanqidchilari va alternativ yondashuvlar

Sivilizatsion o'zlik kontsepti zamonaviy xalqaro munosabatlar va siyosat nazariyasida eng munozarali tushunchalardan biridir. Samuel Hantingtonning 1993-yilgi Foreign Affairs maqolasi va 1996-yilgi monografiyasi — “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va dunyo tartibining qayta shakllanishi” — xalqaro munosabatlardagi sivilizatsion paradigmaning asosini qo'ydi. Hantington uchun sivilizatsiya — insonning eng yuksak madaniy identiteti va madaniy farqlanishning eng keng doirasi; sivilizatsiyalar esa “dunyo tarixining asosiy aktorlari” hisoblanadi¹.

Hantington nazariyasiga eng kuchli tanqidlar uch yo'nalishda bildirildi. Birinchi yo'nalish — Eduard Said va Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan postkolonial tanqid. Said “sivilizatsiyalar to'qnashuvi” g'oyasini yangi orientalizm sifatida ko'rib, u G'arb sivilizatsiyasini normativ standart, boshqalarni esa unga zid “boshqalar” sifatida essentsializatsiya qiladi, deb hisobladi (Said, 2001). Sen esa har bir “sivilizatsiya” ichidagi katta ichki xilma-xillikni ko'rsatib, bir o'lchamli sivilizatsion tasni-flashning sun'iyiligin isbotladi².

Ikkinchi tanqid yo'nalishi — konstruktivistik rad etish. Aleksander Vendt va Peter Katstenshteyn kabil sivilizatsional identitetlarning ijtimoiy konstruktsiya ekanligi va shuning uchun ular tarixiy o'zgarishlarga, siyosiy mobilizatsiyaga va strategik qayta qurilishga ochiq ekanligini ta'kidladi. Sivilizatsion o'zlik — bu tarixning doimiy mohiyati emas, balki siyosiy aktorlar ishtirokidagi o'zgaruvchan konstruktsiya³. Uchinchi yo'nalish — empirik tanqid; Fared Zakariya, Jozef Nay va boshqalar Hantington modelining empirik prognoz qobiliyatining chekliligini ko'rsatdi⁴.

Alternativ yondashuv sifatida ko'plab olimlar sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot va o'zaro ta'sir imkoniyatini ta'kidladi. Xatami taklif qilgan “tsivilizatsiyalar muloqoti”, Raimundo Panikkarning “intrakulturalizm” g'oyasi va transsivil axloq nazariyalari sivilizatsion chegaralarning o'tib bo'lmas emas, balki negotiatsiya qilish mumkin

bo'lgan to'siqlar ekanligini ko'rsatadi. Bu yondashuv sivilizatsion o'zlikni qat'iy determinant emas, balki doimiy dialogda o'zgarib boradigan jarayon sifatida ko'radi.

3. METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo'llandi:

Dialektik tahlil metodi — maqolaning asosiy metodologik ustuni sifatida uch tushuncha o'rtasidagi qarama-qarshilik, o'zaro o'tish va sintez jarayonlarini ko'rib chiqish uchun qo'llanildi. Dialektik yondashuv har bir tushunchani izolyatsiyada emas, balki boshqalar bilan dialektik munosabatda tahlil qilish imkonini berdi.

Diskurs-tahlil metodi — Fuko va Laklau-Muffe an'anasida — siyosiy identitet va sivilizatsion o'zlikni qurishda ishtirok etuvchi diskursiv amaliyotlar, normativ kurashlar va gegemoniya mexanizmlarini o'rganish uchun qo'llanildi. Bu metod matn va nutqlar orqali hokimiyat-bilim munosabatlarini ochib berish imkonini beradi.

Qiyosiy-tarixiy tahlil — sivilizatsiyalararo va davlatlararo kontekstlarda ijtimoiy ong va identitet shakllanishining o'xshashliklari va farqlarini aniqlash maqsadida qo'llanildi. Postsovet va G'arb tajribalari, Sharq va G'arb sivilizatsion an'alarining qiyosiy tahlili ushbu metodning asosiy yo'nalishlarini belgiladi.

Misollar tahlili (case study) — O'zbekistonning postsovet davrida identitet qurilishini empirik jihatdan o'rganish uchun qo'llanildi. 2016-yildan keyingi “Yangi O'zbekiston” diskursi, uning sivilizatsion, milliy va global o'lchamlari ko'rib chiqildi.

Interdistsiplinar sintez — falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniy tadqiqotlar va xalqaro munosabatlar nazariyasini birlashtirib, tushunchalar o'rtasidagi ko'priklarni qurishga imkon beruvchi yondashuv sifatida qo'llanildi.

4. TAHLIL:

DIALEKTIKA UCHTA O'Q BO'YLAB

4.1. Birinchi o'q: Ijtimoiy ong va global axborot muhiti dialektikasi

Zamonaviy ijtimoiy ong global axborot muhiti bilan murakkab dialektik munosabatda shakllanuvchan. Bir tomondan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va transmilliy media ijtimoiy ongning shakllanishini milliy-davlat chegaralaridan chiqarib yubordi. Endi ko'plab odamlar bir vaqtning o'zida mahalliy va global ong olamida yashaydi — o'z qishlog'i haqida qayg'uradi va ayni paytda iqlim o'zga-

1 Huntington, S. P. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster. — 368 p.

2 Sen, A. (2006). Identity and Violence: The Illusion of Destiny. New York: W. W. Norton. — 215 p.

3 Wendt, A. (1999). Social Theory of International Politics. Cambridge: Cambridge University Press. — 450 p.

4 Zakaria, F. (2003). The Future of Freedom: Illiberal Democracy at Home and Abroad. New York: W. W. Norton. — 286 p.

rishi, global tengsizlik yoki uzoqdagi urushlar haqida tashvishlanadi. Kastellsning “tarmoq jamiyati” va “kommunikatsion hokimiyat” nazariyasi ushbu jarayonni tahlil qilish uchun muhim ramka beradi⁵.

Boshqa tomondan, ushbu global axborot muhiti o‘zi ham dialektik ziddiyatga to‘la. U bir vaqtning o‘zida ommaviy standartlashtirish (McDonaldizatsiya) va mahalliy o‘zlikni yanada chuqurroq tarzda anglash va ifodalash imkonini yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar ham global giperkulturaning tarqalish kanali, ham mahalliy tillar, an‘analar va identitetlarning saqlanish va ifoda etilish platformasiga aylanmoqda. Bu “glokallik” (glocality) hodisasi — global va mahalliyning bir-birini inkor etmasligi, balki o‘zaro o‘tib ketishi — zamonaviy ijtimoiy ong dialektikasining markaziy xulosasiga aylanmoqda⁶.

Uchinchi dialektik ziddiyat — axborot erkinligi va manipulyatsiya o‘rtasidagi munosabat. Raqamli axborot muhiti, bir tomondan, davlatning monopol axborot nazoratini qiyinlashtirsa-da, boshqa tomondan, algorithm, chuqur soxta (deepfake) va maqsadli dezinformatsiya orqali yangi, yanada nozik nazorat imkoniyatlarini yaratmoqda. Ijtimoiy ong endi nafaqat an‘anaviy mafkuraviy apparatlar orqali, balki ma‘lumotlar iqtisodiyoti va raqamli gegemoniya orqali ham shakllantirilmoqda. Bu Gramshining gegemoniya nazariyasining XXI asrdagi raqamli inkarnatsiyasini ifodalaydi.

4.2. Ikkinchi o‘q: Siyosiy identitet va sivilizatsion o‘zlik o‘rtasidagi dialektik harakat

Siyosiy identitet va sivilizatsion o‘zlik o‘rtasidagi munosabat qo‘pol determinizm (sivilizatsiya siyosiy identitetni belgilaydi) yoki to‘liq avtonimiya (ular bir-biridan mutlaqo mustaqil) sifatida tushuntirib bo‘lmaydi. Realliq ko‘proq dialektik: ular bir-birini doimiy ravishda shakllantiradi, qayta quradi va bir-biriga o‘tib ketadi.

Siyosiy identitetning sivilizatsional o‘zliqqa ta‘sirini ko‘p sonli tarixiy misollarda kuzatish mumkin. Kemal Atatürk Turkiyani G‘arb sivilizatsiyasining bir qismi sifatida qayta qurishga intildi va buning uchun tilda, huquqda, madaniyatda va siyosiy tuzilmada tubdan islohotlar amalga oshirdi. Bu tajriba sivilizatsion o‘zlikning siyosiy qarorlar orqali kontseptual qayta qurilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Biroq dialektik jarayon ushbu loyihaning cheklovlarini ham namoyon etdi — Islom qadriyatlari va Sharq madaniy merosi Turkiya ijtimoiy ongida davom etdi va keyingi siyosiy ziddiyatlarning asosiy manbai bo‘lib qoldi.

Aksincha, sivilizatsional o‘zlikning siyosiy identitetni shakllantirishiga ham ko‘plab misollar keltirish mumkin. Konfutsiy ta‘limoti Xitoy, Yaponiya, Koreya va Singapur siyosiy madaniyatida — democratic legitimacy dan farqli bo‘lgan meritokratiya va ijtimoiy kelishuv modelini — hali ham belgilaydi. Islom sivilizatsiyasining

siyosiy identitet shakllantiruvchi roli Eron inqilobidan boshlab musulmon ko‘pchilikli ko‘plab davlatlardagi siyosiy safarbarlikda kuzatilmoqda. Biroq ushbu munosabat ham deterministic emas — Islom sivilizatsiyasi ichida ham dunyoviy, ham teokratik, ham demokratik, ham avtoritar siyosiy identitetlar mavjud.

Dialektik yondashuv ushbu munosabatni statik “belgilovchi omil” sifatida emas, balki dinamik o‘zaro ta‘sir sifatida ko‘radi. Sivilizatsional o‘zlik siyosiy identitetga imkoniyatlar va cheklovlar — Burdye terminologiyasida aytganda, “ijtimoiy maydon” — beradi; siyosiy identitet esa o‘z navbatida ushbu maydon ichidagi “kapital” — madaniy, ramziy va ijtimoiy kapital — taqsimotini o‘zgartiradi. Ikkisi birgalikda doimiy dialektik harakat — “o‘zaro o‘tish” — holida turadi.

4.3. Uchinchi o‘q: Yangi jahon tartibining sivilizatsion-identitet konfiguratsiyasi

Yangi jahon tartibining shakllanishi jarayonida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o‘zlikning dialektik munosabatlari yangi konfiguratsiyalar hosil qilmoqda. Ushbu konfiguratsiyaning beshta asosiy xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi xususiyat — identitetning ko‘pqatlamliligi va o‘xshashmasligi. Zamonaviy shaxs va jamoalar bir vaqtning o‘zida bir nechta siyosiy va sivilizatsional identitetlarning tashuvchisi hisoblanadi va ushbu identitetlar ko‘pincha o‘zaro qarama-qarshi impulsllar beradi. Masalan, zamonaviy O‘rta Osiyo fuqarosi bir vaqtning o‘zida o‘zbek milliy identiteti, Islom diniy identiteti, postsovet madaniy meros va global fuqaro identitetini tashiydi. Ushbu “identitetlar to‘qnashuvi” odatda Hantington tushuntirgandek sivilizatsiyalar o‘rtasida emas, balki shaxs yoki jamoaning ichida kechadi.

Ikkinchi xususiyat — identitet normativ kurash ob‘ekti sifatida. Yangi jahon tartibida sivilizatsional o‘zlik va siyosiy identitet faqat tarixiy meros emas, balki faol kurash ob‘ektiga aylandi. “Kim biz?”, “Qaysi sivilizatsiyaga tegishlimiz?”, “Qanday siyosiy qadriyatlar bizniki?” — bu savollar davlatlar, siyosiy kuchlar va intellektual muhitlar tomonidan aktiv ravishda muhokama qilinadi va ular uchun kurash olib boriladi. Laclau-Mouffe terminologiyasida bu “gegemonnaya kurash” bo‘lib, turli siyosiy diskurslar ijtimoiy ongni va identitetni o‘z versiyasida shakllantirmoqchi bo‘ladi⁷.

Uchinchi xususiyat — “o‘zlik” va “boshqalar” munosabatining qayta qurilishi. An‘anaviy sivilizatsion nazariyada “biz” va “ular” chegaralari qat‘iy tarzda belgilangan. Biroq zamonaviy tarmoqli dunyo, migratsiya va madaniy gibridlashtirish bu chegaralarni loyqalashtirib yubormoqda. Transmilliy diasporalar, global shaharlar va raqamli jamoalar yangi “ko‘p joylilik” (translocality) va “ko‘p tegishlilik” (multiple belonging) hodisalarini vu-

5 Castells, M. (2009). *Communication Power*. Oxford: Oxford University Press. — 571 p.

6 Robertson, R. (1995). *Glocalization: Time-Space and Homogeneity-Heterogeneity*. In M. Featherstone, S. Lash, & R. Robertson (Eds.), *Global Modernities* (pp. 25–44). London: Sage.

7 Laclau, E., & Mouffe, C. (1985). *Hegemony and Socialist Strategy: Towards a Radical Democratic Politics*. London: Verso. — 197 p.

judga keltirmoqda. Bu hodisalar an'anaviy sivilizatsional o'zlikni inkor etmaydi, ammo uning mazmuni va chegaralarini murakkablashtiradi.

To'rtinchi xususiyat — "retroaktiv" identitet qurilishi. Ko'pgina zamonaviy siyosiy va sivilizatsional identitetlar kelajakni emas, balki o'tmishni qayta kashf etish yoki ixtiro qilish orqali qurilmoqda. "Buyuk Xitoy" orzusi, "Rossiya dunyo"si konsepsiyasi, "Yangi Usmonli" siyosati, "Yevrosiyo uyg'onishi" kabi diskurslar barchasi siyosiy maqsadlar uchun tarixiy "oltin davr" mifologiyasiga murojaat qiladi. Bu hodisa Xobsbaumning "ixtiro qilingan an'analar" tushunchasini yangi siyosiy kontekstda tasdiqlaydi va kuchaytiradi.

Beshinchi xususiyat — identitet siyosatining "qurollantirilishi" (weaponization of identity). Yangi jahon tartibida sivilizatsional va siyosiy identitetlar nafaqat o'z-o'zini ifodalash va jamoani uyushtirish maqsadida, balki geosiyosiy kurashning qurollariga aylantirilmoqda. Raqamli propaganda, madaniy imperializm va "identitet qurollari" — bular yangi geosiyosiy raqobatning muhim instrumentlari hisoblanadi. Bu holat dialektik ziddiyatni yanada chuqurlashtiradi: identitet bir vaqtning o'zida ham sub'ektning erkin o'zini ifodalashi, ham tashqi kuchlar tomonidan manipulyatsiya qilinuvchi ob'ekt hisoblanadi.

5. O'ZBEKISTON: POSTSOVET IDENTITET DIALEKTIKASI MISOLIDA

5.1. Tarixiy kontekst: identitetning uch qatlami

O'zbekistonning siyosiy identiteti va sivilizatsional o'zligi murakkab tarixiy sedimentatsiyaning mahsulidir. Uchta asosiy qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam — Islom sivilizatsiyasi va O'rta Osiyo madaniy merosi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar Islom sivilizatsiyasining intellektual markazlari bo'lgan; Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek va Navoiy kabi mutafakkirlar nafaqat O'rta Osiyo, balki jahon madaniy merosining bir parchidir. Ushbu qatlam O'zbekiston ijtimoiy ongining eng chuqur, uzoq muddatli plastini tashkil etadi.

Ikkinchi qatlam — sovet davri va uning madaniy-mafkuraviy merosi. 70 yillik sovet hukmronligi O'zbekiston ijtimoiy ongini, ijtimoiy tuzilmasini va siyosiy madaniyatini chuqur o'zgartirdi. Marksistik-leninistik mafkura, kollektivizm, industrializatsiya va sekularizatsiya O'zbekiston jamiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Biroq dialektik jarayon bu yerda ham o'zini namoyon qildi: sovet modernizatsiyasi o'zbek milliy identitetini yo'qotishga emas, balki paradoks tarzda uni mustahkamlashga — o'zbek tili, madaniyati va tarixiga bo'lgan munosabatni siyosiy lashtirish orqali — hissa qo'shdi.

Uchinchi qatlam — mustaqillik davri va yangi milliy identitet qurilishi. 1991-yildan boshlab O'zbekis-

ton o'z milliy identitetini qurishning murakkab jarayonini boshladi. Islom Karimov davri uchun xos bo'lgan yopiq, izolyatsionistik va "barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yuvchi" identitet modeli 2016-yildan keyin tubdan o'zgarib, yanada ochiq, ko'p vektorli va zamonaviy modifikatsiyaga o'tdi. Ushbu o'tish o'ziga xos dialektik harakat bo'lib, avvalgi modelni inkor etishni ham, merosini o'zlashtirish va yangilashni ham o'z ichiga oladi.

5.2. "Yangi O'zbekiston" diskursi: sivilizatsion-konstruktivistik tahlil

"Yangi O'zbekiston" — bu nafaqat siyosiy dastur, balki ijtimoiy ong va siyosiy identitetni qayta qurishning keng qamrovli loyihasiga aylandi. Ushbu loyihaning sivilizatsional o'lchamida quyidagi elementlar alohida ajralib turadi.

Avvalo, "Uchinchi Renessans" g'oyasi. Prezident Mirziyoev ko'p chiqishlarida O'zbekiston uchun "Uchinchi Renessans" — Islom oltin davri va Temuriylar Renessansidan keyin uchinchi — ga intilish g'oyasini ilgari surdi. Bu diskurs bir vaqtning o'zida sivilizatsional o'tmishga murojaat qilish (Islom sivilizatsiyasining ulug' merosi), milliy identitetni mustahkamlash (o'zbek intellektual va madaniy buyukligi) va kelajakka yo'naltirilgan modernizatsiya loyihasi (ilm-fan, innovatsiya, ta'lim)ni birlashtirishga harakat qiladi. Bu retroaktiv va prospektiv identitet qurishning noyob kombinatsiyasi.

Ikkinchidan, mintaqaviy liderlik va O'rta Osiyo birligi diskursi. 2016-yildan boshlab O'zbekiston o'zini O'rta Osiyo mintaqasining tabiiy rahbari va integratsiya harakatlantiruvchi kuchi sifatida kontseptualashtirmoqda. Bu identitet qurilishi bir vaqtning o'zida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining muhim qismini tashkil etish g'ururini, strategik manfaatni (mintaqaviy kuch maqomiga intilish) va konstruktivistik normativ kurashni (O'rta Osiyoning xalqaro obro'sini ko'tarish) mujassam etadi.

Uchinchidan, ko'p vektorlilik va dialogik identitet. O'zbekistonning bir vaqtning o'zida Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Eron va Hindiston bilan teng darajada hamkorlik qilish strategiyasi qiziqarli identitet implikasiyasiga ega. Bu strategiya sivilizatsional o'zlikni bir qutbga qamab qo'yishdan bosh tortish va global muloqotda faol ishtirokchi sifatida o'zini ifodalash ekanligini bildiradi. Hantington modelidan farqli o'laroq, bu yondashuv sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni to'qnashuvdan ustun qo'yadi.

To'rtinchidan, dunyoviylik va din dialektikasi. O'zbekistonda dunyoviy davlatchilik va Islom madaniy identitetining o'zaro munosabati nozik dialektik muvozanat sifatida davom etmoqda. Davlat Islom madaniy merosini (masjidlar, madrasa, mutafakkirlar) faol targ'ib qilar ekan, siyosiy Islomga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni saqlab qolmoqda. Bu o'z ichida dialektik ziddiyatni — madaniy-sivilizatsional Islom bilan siyosiy Islom o'rtasidagi chegara — mujassam etgan identitet qurilishi modelidir.

6. MUHOKAMA:

DIALEKTIK SINTEZ TOMON

6.1. Dialektik triadaning yangi talqini

Yuqorida ko'rib chiqilgan tahlil asosida ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o'zlikning o'zaro munosabatini yangi dialektik triadasida ifodalash mumkin.

Tezis — sivilizatsional o'zlik — uzoq tarixiy jarayonlar, din, til va madaniy xotira orqali shakllangan nisbatan barqaror, ammo mutlaq o'zgarmas bo'lmagan ijtimoiy-madaniy poydevorni ifodalaydi. U ijtimoiy ong va siyosiy identitet uchun material, ramzlar, narrativlar va qadriyatlar “ombori” hisoblanadi.

Antitezis — siyosiy identitet — ushbu tarixiy poydevorni siyosiy maqsadlar va sharoitlar uchun mobilizatsiya qiluvchi, uni qayta talqin etuvchi va ba'zan qayta quradigan kuchdir. Siyosiy identitet dinamik, o'zgaruvchan va siyosiy kurashlar, normativ talablar va strategik qayta yo'naltirish jarayonlariga ochiq. U sivilizatsional o'zlikni ham tasdiqlaydi, ham qayta shakllantiradi.

Sintez — ijtimoiy ong — ushbu dialektik harakatning natijasi sifatida paydo bo'ladi. U sivilizatsional merosni va siyosiy identitetni o'zida birlashtirib, jamiyatning kollektiv o'z-o'zini anglashini shakllantiradi. Biroq ijtimoiy ong o'zi ham to'liq passiv emas — u o'z navbatida ham sivilizatsional o'zlikka, ham siyosiy identitetga ta'sir o'tkazib, keyingi dialektik harakatning boshlang'ich nuqtasiga aylanadi. Bu — spiral dialektika bo'lib, har bir davrda yuqoriroq darajada qaytadi.

6.2. Yangi jahon tartibida dialektik cho'qqilar

Yangi jahon tartibida ushbu dialektik harakat o'ziga xos “cho'qqilar” — dialektik ziddiyatning eng yuqori nuqtalariga yetadigan momentlar — hosil qilmoqda. Uchta asosiy cho'qqini keltirish mumkin.

Birinci cho'qqi — “identitet siyosiy” momenti. Bu — identitet masalalarining bevosita siyosiy kuchga aylanadigan, demokratik mobilizatsiya yoki avtoritar nazoratning asosiy vositasiga aylanadigan momentidir. Brexit, trampizm, Hindiston millatchiligi yoki turli populistik harakatlar bu cho'qqining G'arb va G'arb bo'lmagan versiyalaridir. Bu momentlarda ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o'zlik birlashib, noyob siyosiy kuch hosil qiladi.

Ikkinchi cho'qqi — “sivilizatsional uyg'onish” momenti. Bu — sivilizatsional o'zlikning uzoq muddatli uyqudan uyg'onib, faol siyosiy va ijtimoiy kuchga aylanadigan momentidir. Xitoyning “Xitoy orzusi” diskursi, Turkiyaning “Neo-Usmonli” yo'nalishi yoki ba'zi Islom davlatlarining “Islom Renessansi” harakatlari — bularning barchasi sivilizatsional uyg'onish momentlarining turli ifodalardir. Bu momentlarda tarix va o'tmish kelajak uchun faol harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Uchinchi cho'qqi — “identitet krizi” momenti. Bu — ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o'zlik o'rtasidagi muvozanat buzilganda, jamiyat o'z-o'zini anglashda iqtisodiy va kultural dezorientatsiyaga tushganda ro'y beradi. Sobiq sovet respublikalarining dastlabki

mustaqillik yillaridagi “identitet bo'shlig'i”, iqtisodiy va ijtimoiy inqiroz davrlaridagi polarizatsiya — bu cho'qqining namoyon bo'lishlaridir. Ushbu momentlar eng xavfli, ammo ayni vaqtda yangi identitet qurilishi uchun eng qulay davr hamdir.

7. XULOSALAR

Ushbu tadqiqot quyidagi muhim xulosalarni asoslab berdi:

Birinci xulosa. Ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o'zlik o'rtasidagi munosabat hech qaysi determinizm (iqtisodiy, madaniy yoki strukturaviy) orqali izohlab bo'lmaydi. Ular dialektik — bir-birini doimiy shakllantiruvchi, qayta quradigan va o'zgartiradigan — munosabatda turadi. Ushbu dialektik yondashuv zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushuntirishda eng yuqori evristik salohiyatga ega.

Ikkinchi xulosa. Yangi jahon tartibida ushbu uchala tushuncha yanada muhimroq, murakkabroq va siyosiy jihatdan aloqadorroq bo'lmoqda. Global axborot muhiti, identitetning qurollantirilishi va sivilizatsiyalararo raqobat bu dialektik munosabatning intensivligini va tezligini oshirmoqda. Hantington modeli bu murakkablikni etarlicha aks ettirmasligini tahlil ko'rsatdi.

Uchinchi xulosa. Sivilizatsional o'zlik statik emas, balki doimiy qayta qurilish jarayonida bo'lgan dinamik hodisadir. Ushbu qurilish jarayonida siyosiy aktorlar, intellektuallar, media va fuqarolik jamiyati faol ishtirokchi hisoblanadi. Shuning uchun sivilizatsional o'zlikni “berilgan” emas, “qurilgan” — ammo qurilish uchun material va chekovchi imkoniyatlar tarixiy va madaniy poydevor tomonidan belgilanadi — deb tushunish to'g'riroq.

To'rtinchi xulosa. O'zbekiston misolida postsovet identitet qurilishi dialektik tuzilmaning amaliy namoyon bo'lishini ko'rsatdi. “Yangi O'zbekiston” diskursi — retroaktiv va prospektiv elementlarni, sivilizatsional meros va zamonaviy modernizatsiyani, dunyoviylik va diniy o'zlikni birlashtiradigan — noyob identitet sintezi sifatida tahlil qilindi. Bu model boshqa postsovet va rivojlanayotgan davlatlar uchun ham tadqiqot ob'ekti sifatida qiziqarlidir.

Beshinchi xulosa. Yangi jahon tartibotini tushunish uchun xalqaro munosabatlar nazariyasi materializm va idealizmning bir tomonlama ustuvorligidan voz kechib, ijtimoiy ong va sivilizatsional o'zlikning materiallik bilan dialektik munosabatini hisobga oluvchi integrativ yondashuvlarga muhtoj. Ushbu maqolada taklif qilingan dialektik ramka — ijtimoiy ong, siyosiy identitet va sivilizatsional o'zlikning uch qutbli triadasi — ana shu integrativ yondashuv uchun bir konfiguratsiyani anglatadi.